ZAMONAVIY IQTISODIYOT VA INTELLEKTUAL TEXNOLOGIYALAR
Ilmiy-uslubiy elektron jurnali — Sharq universiteti
ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

KICHIK BIZNESDA ELEKTRON TO‘LOV TIZIMLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Husanov F.O., Oliy matematika kafedrasi v.b. dotsenti,
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti,
ORCID: 0009-0005-4184-4503,
Email: husanovfarrux7@gmail.com
DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli iqtisodiyot davrida kichik biznes subyektlari faoliyatida elektron to‘lov tizimlarining iqtisodiy samaradorligi atroflicha tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik biznes sohalarida naqdsiz to‘lovlarning tadbirkor va xaridor uchun iqtisodiy naf keltirishini miqdoriy asoslash va to‘siqlarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishdan iborat. Mavzuning dolzarbligi shundaki, naqdsiz hisob-kitoblarning oshishi bevosita savdo xarajatlarini kamaytirishga, xizmat ko‘rsatish tezligini oshirishga va aylanma mablag’larni tezlashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida iqtisodiy-statistik, qiyosiy tahlil hamda kuzatish usullaridan foydalanildi. Olingan asosiy natijalar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistondagi milliy ilovalar va savdo terminallari orqali to‘lovlarni qabul qilish vaqtni 85% ga tejash imkonini beradi va yashirin xarajatlarni to‘liq bartaraf etadi. Taklif etilayotgan yondashuvning ilmiy yangiligi elektron to‘lovlarning mikrodarajadagi (bitta xaridor kesimidagi) vaqt va tranzaksiya tejamkorligi qiyosiy baholanganligidadir. Uning amaliy ahamiati esa savdo shoxobchalarida xarajatlarni optimallashtirish va to‘lov infratuzilmasini takomillashtirish yuzasidan berilgan aniq xulosa va takliflar bilan izohlanadi.

Аннотация: В данной статье всесторонне исследована экономическая эффективность систем электронных платежей в деятельности субъектов малого бизнеса в эпоху цифровой экономики. Основная цель исследования – количественное обоснование экономической выгоды безналичных расчетов для

© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

предпринимателей и покупателей, а также разработка мер по устранению препятствий. Актуальность темы заключается в том, что увеличение безналичных расчетов напрямую способствует снижению торговых издержек, повышению скорости обслуживания и ускорению оборотного капитала. В качестве методологии применялись экономико-статистические методы, сравнительный анализ и наблюдение. Полученные результаты показывают, что прием платежей через национальные приложения и торговые терминалы в Узбекистане позволяет сэкономить до 85% времени и полностью устраняет скрытые издержки. Научная новизна предлагаемого подхода заключается в сравнительной оценке экономии времени и транзакций электронных платежей на микроуровне (в разрезе одного покупателя). Его практическая значимость объясняется конкретными выводами и предложениями по оптимизации затрат в торговых точках и совершенствованию платежной инфраструктуры.

Abstract: This article comprehensively analyzes the economic efficiency of electronic payment systems in the activities of small business entities during the digital economy era. The main purpose of the study is to quantitatively substantiate the economic benefits of cashless payments for entrepreneurs and buyers in small business sectors and to develop measures to overcome existing obstacles. The relevance of the topic is that the increase in cashless settlements directly serves to reduce trade costs, increase the speed of service, and accelerate working capital. Economic-statistical methods, comparative analysis, and observation were used as the research methodology. The main results obtained indicate that accepting payments through national applications and point-of-sale terminals in Uzbekistan saves time by 85% and completely eliminates hidden costs. The scientific novelty of the proposed approach lies in the comparative evaluation of the time and transaction savings of electronic payments at the micro level (per single buyer). Its practical significance is explained by specific conclusions and

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

recommendations given for optimizing costs in retail outlets and improving the payment infrastructure.

Kalit so‘zlar: elektron to‘lov, kichik biznes, raqamli iqtisodiyot, naqdsiz hisob-kitob, iqtisodiy samaradorlik, savdo terminallari, pul aylanmasi, tranzaksiya xarajati, ekvayring komissiyasi, yashirin iqtisodiyot, moliyaviy shaffoflik.

Ключевые слова: электронный платеж, малый бизнес, цифровая экономика, безналичный расчет, экономическая эффективность, торговые терминалы, денежный оборот, транзакционные издержки, эквайринговая комиссия, теневая экономика, финансовая прозрачность.

Keywords: electronic payment, small business, digital economy, cashless settlement, economic efficiency, trade terminals, money circulation, transaction costs, acquiring commission, shadow economy, financial transparency.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasida iqtisodiyot tarmoqlarini raqamlashtirish va moliyaviy texnologiyalarni joriy etish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti tarkibida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi yuqori bo‘lib, ularning moliya-xo‘jalik faoliyatiga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, tovar va xizmatlar aylanmasida elektron to‘lov tizimlarining qamrovi kengayib borayotgani savdo shoxobchalari va xizmat ko‘rsatish nuqtalariga nafaqat vaqtni tejash, balki ortiqcha hisob-kitob xarajatlarini maqbullashtirish imkonini ham bermoqda. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi yillarda respublikada mobil ilovalar va raqamli tizimlar orqali amalga oshirilgan to‘lovlar hajmi jadal sur’atlarda o‘sib bormoqda. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi – kichik biznes sohalarida naqdsiz to‘lovlarning tadbirkor va xaridor

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

uchun qanday aniq iqtisodiy naf keltirishini asoslash va bu jarayonda hududlarda yuzaga kelayotgan ayrim to‘siqlarni bartaraf etish choralarini ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili

Raqamli moliyaviy texnologiyalar va ularning iqtisodiyotdagi o‘rni mahalliy olimlar hamda iqtisodchi mutaxassislar tomonidan keng o‘rganilmoqda. Xususan, U.A.Uzakov o‘zining ilmiy izlanishlarida raqamli to‘lovlar va elektron pul aylanishining yangi iqtisodiy bosqichlarini tahlil qilib, tizimning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o‘rnini alohida ta’kidlaydi [1]. Shuningdek, M.Mamatov va N.Botirovalar tomonidan raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to‘lov tizimlarining ahamiyati, xususan, kichik biznesdagi operatsion qulayliklari hamda naqdsiz iqtisodiyotga o‘tish jarayonlari chuqur o‘rganilgan [2]. Bundan tashqari, iqtisodchi F.Qodirov elektron tijorat va to‘lov tizimlarining uzviy bog’liqligini tadqiq etib, milliy platformalarning xizmat ko‘rsatish sohasidagi samarasini yuridik va iqtisodiy jihatdan baholagan [3]. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, moliya tizimida raqamli to‘lovlarning umumiy afzalliklari yetarlicha yoritilgan bo‘lsa-da, bevosita mahalliy kichik biznes faoliyatida, ayniqsa chakana savdodagi amaliy iqtisodiy foyda va ko‘rinmas xarajatlar tahlilini yanada chuqurlashtirish talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada qo‘yilgan ilmiy masalalarni yoritishda O‘zbekiston moliya bozoridagi statistik ma’lumotlarni to‘plash va tizimlashtirish maqsadida miqdoriy tahlil usuli, shuningdek, an’anaviy naqd pullik aylanma va elektron to‘lovlar vositasidagi aylanma o‘rtasidagi iqtisodiy tafovutni o‘rganish uchun qiyosiy tahlil usullari qo‘llanildi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Statistika agentligi hamda Soliq qo‘mitasining rasmiy ochiq ma’lumotlari tadqiqotning asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qildi. Tahlil jarayonida iqtisodiy jarayonlarni kuzatish, umumlashtirish va mantiqiy xulosa chiqarish tamoyillariga tayanildi.

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Tahlil va natijalar

Zamonaviy biznes muhitida elektron to‘lov tizimlari kichik biznes subyektlari uchun shunchaki pullarni qabul qilish vositasi emas, balki iqtisodiy samaradorlikni ta’minlovchi markaziy mexanizmga aylanib ulgurdi. O‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, an’anaviy naqd pul aylanmasidan voz kechib, to‘liq yoki qisman raqamli hisob-kitoblarga o‘tish korxonaning ichki tranzaksiya (operatsion) xarajatlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Ushbu tafovutni aniqroq anglash maqsadida, bitta o‘rtacha xaridorga xizmat ko‘rsatish misolida naqd va naqdsiz to‘lovlarning iqtisodiy ko‘rsatkichlarini qiyosiy tahlil qildik (1-jadvalga qarang).

1-jadval. Kichik biznes savdo nuqtalarida naqd va elektron to‘lov operatsiyalarining qiyosiy tahlili

Ko‘rsatkichlar turi	Naqd puldagi hisob-kitob	Elektron to‘lov (POS, QR, NFC)	Iqtisodiy ta’sir (Farq)
Bitta xaridorga xizmat ko‘rsatish vaqti	O‘rtacha 90-120 soniya (qaytim berish bilan)	O‘rtacha 10-15 soniya	Vaqt 85% ga tejaladi, o‘tkazuvchanlik oshadi
Inkassatsiya va xavfsizlik xarajatlari	Tushumning 0.5% – 1% gacha qismi (bankka yetkazish, saqlash)	0% (To‘g’ridan-to‘g’ri hisob raqamga o‘tadi)	Yashirin xarajatlar to‘liq bartaraf etiladi
Qalbaki kupyura xavfi	Mavjud (sotuvchining moddiy javobgarligi)	Umuman mavjud emas	Tavakkalchilik 100% qisqaradi

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Ko‘rsatkichlar turi	Naqd puldagi hisob-kitob	Elektron to‘lov (POS, QR, NFC)	Iqtisodiy ta’sir (Farq)
Ekvayring xarajati (bank komissiyasi)	0% (Kassaga to‘liq naqd tushadi)	Aylanmaning 0.5% – 1.5% atrofida	Elektron to‘lovlarda vositachilik xarajati mavjud
Soliq hisoboti shaffofligi	Inson omili sababli chek bermaslik xavfi yuqori	Avtomatik tarzda soliq bazasiga integratsiya bo‘ladi	Davlat iqtisodiyoti shaffoflashadi

Manba: muallif ishlanmasi

Jadval ma’lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, elektron to‘lovlarda bank komissiyasi ko‘rinishidagi kichik xarajat mavjud bo‘lsa-da, vaqtni tejash, inkassatsiya xarajatlaridan xalos bo‘lish va xavfsizlik nuqtai nazaridan naqdsiz to‘lovlar tadbirkor uchun mutlaq ustunlikka ega. Ayniqsa, xizmat ko‘rsatish vaqtining o‘rtacha 90 soniyadan 15 soniyagacha qisqarishi tig’iz paytlarda fast-fud, qahvaxona yoki oziq-ovqat do‘konlariga bir xil vaqt oralig’ida ko‘proq mijozga xizmat ko‘rsatib, daromadni oshirish imkonini beradi [3].


Buning ustiga, xaridorlarning xulq-atvor psixologiyasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, odamlar naqd pul o‘rniga bank plastik kartasi yoki mobil ilova (Payme, Click, Uzum) orqali to‘lov qilganda “pulning ko‘zga ko‘rinmasligi” psixologik holati ishga tushib, o‘rtacha 15-20 foiz ko‘proq mablag’ sarflashga moyil bo‘ladilar. Pulning jismonan kamayishi his etilmagani sababli xaridorlar rejalashtirilmagan qo‘shimcha xaridlarni osonlik bilan amalga oshiradilar. Natijada kichik savdo shoxobchalarida haftalik tovar aylanmasining barqaror o‘sishi ta’minlanmoqda [2].

Bugungi kundagi O‘zbekiston kichik savdo bozorida xaridorlar tomonidan tanlanayotgan to‘lov vositalarining tarkibi ham tubdan o‘zgarib bormoqda. Buni quyidagi ko‘rsatkichlar misolida ko‘rishimiz mumkin:

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

1-diagramma. Kichik biznes savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarida to‘lov turlarining o‘rtacha ulushi (2024-yil holatiga)



Manba: tadqiqot natijalari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinadiki, hozirgi kunda savdo aylanmasining qariyb 65 foizi raqamli ko‘rinishga o‘tib ulgurgan. Shuningdek, davlat tomonidan joriy etilgan 1 foizlik “Keshbek” tizimi bu ko‘rsatkichning yanada tezroq o‘sishiga asos bo‘lmoqda. Oddiy xaridorlar keshbek olish maqsadida qat’iy talab bilan chek so‘rashi natijasida tadbirkorlik subyektlarining soliq hisobotlari to‘liq shaffoflashib, mamlakatda yashirin iqtisodiyot ko‘lami keskin qisqarishiga erishilmoqda [1].

Ammo, yutuqlar bilan bir qatorda tizimni yanada ommalashtirishga to‘sqinlik qilayotgan jiddiy muhokamali muammolar ham mavjud. Birinchisi — vositachilik komissiyasining mikrobiznes uchun og’irligidir. Daromad ustamasi bor-yo‘g’i 8-10 foizni tashkil etadigan kichik oziq-ovqat do‘konlari uchun elektron to‘lovlardan olinadigan 1 foizgacha komissiya ularning shundoq ham kam bo‘lgan sof foydasiga salbiy ta’sir qiladi. Ikkinchisi — olis tumanlar va qishloq joylarda mobil internet qamrovining barqaror emasligidir. Internetning uzilishi terminal va ilovalarning

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

ishlashdan to‘xtashiga olib keladi, bu esa mijozlarning e’tirozi va asabiylashishiga, naqdsiz hisob-kitobga bo‘lgan ishonchning pasayishiga olib kelmoqda.

Xulosa va takliflar

Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, kichik biznesda elektron to‘lov tizimlarining joriy etilishi tadbirkorlik infratuzilmasini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqadi. Ushbu yondashuv tadbirkorning mehnat resurslari va yashirin xarajatlarini tejashi hamda davlat miqyosida shaffof iqtisodiyotni shakllantirishi bilan dolzarb ahamiyatga ega. Mavjud muammolarni bartaraf etish va tizimni yanada takomillashtirish yuzasidan quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi.

Birinchi navbatda, oylik va yillik aylanmasi unchalik yuqori bo‘lmagan mikrobiznes subyektlari (kichik do‘konlar, yakka tartibdagi tadbirkorlar) uchun elektron to‘lovlar orqali ushlab qolinadigan vositachilik yig’imlarini kamaytirilgan foizlarda qo‘llash yoki ushbu xarajatlarni ma’lum muddat davlat tomonidan qisman subsidiya qilish choralarini ko‘rish zarur. Ikkinchi tomondan, savdo subyektlari o‘z aylanma mablag’larini tezkorlik bilan ishlata olishi uchun dam olish va bayram kunlarida ham tadbirkorlik hisob raqamidan mablag’larni yechish yoki konvertatsiya qilish kabi bank operatsiyalarini elektron platformalar orqali uzluksiz, tunu kun ta’minlashni qonuniy kafolatlash muhim ahamiyatga ega. Uchinchi muhim masala, chekka va tog’li hududlarda barqaror aloqa sifatini ta’minlash hamda internet uzilib qolgan holatlarda ham texnik nosozliklarsiz mustaqil ishlaydigan yangi avlod savdo terminallarini amaliyotga keng joriy etish talab qilinadi. Ushbu takliflarning kelgusida amaliyotga joriy etilishi yuz minglab kichik biznes subyektlarining to‘liq raqamli iqtisodiyotga o‘tishini tezlashtiradi va mamlakatda barqaror, raqobatbardosh moliyaviy muhitni yaratishga xizmat qiladi.

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026

ISSN: 3093-9062 Vol. 1 No. 1 (2026)

Foydalanilgan adabiyotlar

[1] Uzakov U.A. Raqamli to‘lovlar va elektron pul aylanishi: yangi iqtisodiy bosqich. “Raqamli Iqtisodiyot” ilmiy-elektron jurnali, 2024, №11, 45–52 b.

[2] Mamatov M., Botirova N. Raqamli iqtisodiyot rivojlanishida to‘lov tizimlarining o‘rni. “Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali, 2024, Vol. 1(1), 15–22 b.

[3] Qodirov F. Elektron tijorat va to‘lov tizimlari. “In-Academy” ilmiy jurnali, 2023, Vol. 3(5), 112–118 b.

DOI: https://doi.org/10.66493/jc9ehd29
© Sharq universiteti, 2026